

SUV TOSHQINLARI VA SEL PAYTIDA AHOLI MUHOFAZASI CHORALARI

Bozorov Subxon Esanovich

Buxoro Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Hayot faoliyati xavfsizligi o`quv

markazi katta o`qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada suv toshqinlari, ularning turlari, hamda suv toshqinlari va sel toshqinlari sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarda harakat choralari va usullari xususidagi fikrlar ifoda etilgan

Kalit so'zlar: suv toshqini, past, halokatli, taniqli, yuqori, bevosita va bilvosita zarar.

KIRISH

Suv toshqini – daryo, ko'l yoki boshqa suv havzalari suv sathining keskin ko'tarilishi natijasida joyning vaqtinchalik suv ostida qolishi. Dunyodagi eng yirik suv toshqini 18 ming yil avval Sibirning Oltoy tog'larida ro'y bergan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, asosiy oqimning chuqurligi 490 m. ga yetgan va 160 km/s tezlikda harakat qilgan. Ma'lumki, daryolarda iqlim omillari ta'siri, xususan qorlarning erishi va jala bilan bog'liq mavsumiy suv ko'payishlari ro'y berib turadi.

Ayrim hollarda bunday toshqinlar tabiiy ofatlarga aylanib ketadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev topshirig'iga asosan sel oqimlari, toshqinlar va ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha doimiy shtab tashkil etildi.

Davlat rahbarining 2022-yil 18-noyabrdagi 426-son qaroriga asosan Toshqinga qarshi hukumat hamda hududiy komissiyalar tuzilgan va ularning asosiy vazifalari belgilangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Suv toshqinlari to'rtga bo'linadi:

Past – tekislik darlarida 5-10-yilda bir marta kuzatiladi. Bunday suv toshqini yuz berganida qirg'oq yaqinidagi dala maydonlari suv ostida qoladi. Bunda unchalik katta bo'lmagan moddiy zarar yetkaziladi va aholining hayot faoliyati buzilmaydi.

Yuqori – har 20-25-yilda bir marta yuz berib, dar vodiylarining anchagina katta maydonlarini suv bosadi. Ba'zi hollarda odamlarni xavfsiz joylarga ko'chirishga to'g'ri keladi, anchagina sezilarli moddiy zarar yetkaziladi.

Taniqli – 50-100-yilda bir marta yuz beradi. Dar havzalarini qamrab oladi, xo‘jalik faoliyati to‘xtab qoladi, jiddiy moddiy zarar yetkaziladi. Aholini ommaviy ko‘chirishga to‘g‘ri keladi.

Halokatli – har 100-200-yilda bir marta yuz beradi. Hat tarzi butunlay o‘zgaradi. Bunday suv toshqinlari ko‘plab odamlarning qurbon bo‘lishiga olib keladi, muhim xo‘jalik obyektlarini muhofaza qilish uchun maxsus tadbirlarni o‘tkazishga to‘g‘ri keladi.

Sabablari. Qor va muzliklarning erishi, uzoq vaqt davomida yomg‘ir yog‘ishi, daryo o‘zanlarining muz parchalari bilan to‘silib qolishi, to‘g‘onlarning buzilishi suv toshqiniga sabab bo‘ladi.

Shikastlovchi omillari. Suv toshqini chog‘ida suv sathi ko‘tariladi va darga tutash joylar suv ostida qoladi. Suv toshqini paytida odamlar, qishloq xo‘jaligi ekinlari, chorva mollari nobud bo‘ladi, bino va inshootlar, kommunikatsiya tarmoqlariga shikast yetadi ki vayron bo‘ladi, moddiy va madaniy boyliklar yo‘qotiladi, xo‘jalik faoliyati to‘xtab qoladi, hosildor yer qatlami yuvilib ketadi.

Bevosita zarar:

- turar joy va ishlab chiqarish binolari, temir va avtomobil yo‘llarining shikastlanishi, elektr va aloqa tizimiga putur yetishi, meliorativ tizimning ishdan chiqishi;
- chorva mollari va qishloq xo‘jaligi ekinlarining nobud bo‘lishi;
- xomashyo, yoqilg‘i, oziq-ovqat mahsulotlari, yem-xashak, o‘g‘itlarning yo‘q qilinishi yoki namlanishi;
- aholini vaqtinchalik ko‘chirish, moddiy boyliklarni xavfsiz joylarga tashish sarf-xarajatlari;
- tuproq hosildor qatlamining yuvib ketilishi va qum, loy yoki toshlar ostida qolishi.

Bilvosita zararlari:

- suv toshqinidan zarar hududlarga oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, dori-darmon, qurilish materiallari va texnika, chorva mollari uchun yem-xashakni olib kelishga ketadigan xarajatlar;
- sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, xalq xo‘jaligi rivojlanish tempining sekinlashuvi;
- mahalliy aholining yashash sharoiti yomonlashuvi;
- suv ostida qolgan hududdan rasional foydalanib bo‘lmazligi, binolar va ishlab chiqarish joylaridan foydalanganlik uchun amortizatsiya xarajatlarning oshib ketishi;
- suv bosish zonasida qolgan doimiy tushib turadigan bino va inshootlarning tez eskirishi.

XULOSA VA MUNOZARA

Tarixiy jarayonlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, suv obyektlari insoniyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynab kelgan. Bir tomondan suv toshqinlari, qurg‘oqchilik, daryolar, ko‘llar va dengizlar rejimining o‘zgarishi halokatlar va katta ijtimoiy-iqtisodiy zararlarga sabab bo‘lgan bo‘lsa, boshqa tomondan, suv obyektlari qishloq xo‘jaligi, energetika, sanoat va iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishini ta‘minlab kelmoqda. Insonlar o‘z faoliyatini qadimda daryolar, ko‘llar va dengizlar tabiiy sharoitiga moslashtirgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan ular daryolar va boshqa obyektlar rejimini o‘z faoliyatiga moslab o‘zgartira boshladi.

Suv toshqini to‘g‘risidagi xabarda odatda favqulodda vaziyat kutilayotgan vaqt, uning chegaralari, aholiga tavsiyalar va evakuatsiya haqida ma‘lumot beiladi. Mobado siz yashayotgan hudud suv toshqini zonasiga tushib qolgudek bo‘lsa, u holda:

- gaz, elektr, suv tarmoqlarini o‘chirish;
- qimmatbaho buyumlarni yuqori qavatlariga olib chiqish;
- deraza va eshiklarni yopib, taxta yoki faner bilan to‘shish;
- evakuatsiya e‘lon qilingan bo‘lsa, hujjatlar, pul va qimmatli qog‘ozlarni, uch kunlik yegulik va tibbiy yordam qutisini hozirlash kerak.

Suv toshqini xavfi mavjud xududlarda yashovchi aholining vazifa va xarakatlari.

Suv bosishi (toshqin)dan oldin:

Eng xavfli yo‘nalishlarda himoya dambalarini barpo qilish, suv toshadigan joylarni berkitish uchun qumli xaltalar, toshlar tayyorlab qo‘yish, oldindan kanal va ariqlarni, kanalizatsiya tizimini tozalash, energiya iste‘molining zahira manbalari, birinchi yordam ko‘rsatish vositalarini tayyorlab qo‘yish lozim. Avtomashinalar baki to‘ldirib qo‘yilishi, ichimlik suvi va oziq-ovqatni g‘amlab qo‘yish ayni muddaodir. Ko‘chma radiopriyomniklar, oshxona anjomlarini shay qilib qo‘ying.

Suv bosish (toshqin) paytida: To‘g‘on (damba) buzilib ketsa suv ostida qolishi mumkin bo‘lgan plastiklardan uzoqroq yuring. Suv bosgan yerlarni, agar suv tizzadan yuqori kelsa, umuman kesib o‘tmang. Oqim Sizni yiqitishi mumkin, suv o‘ramasida esa odam o‘zini eplolmay qoladi. Suv bosgan joylarda avtomobilda ham xarakatlanib bo‘lmaydi, chunki suv ostida chuqurliklar bo‘lishi mumkin.

Suv to‘satdan ko‘tarilgan hollarda tezlik bilan tepa joylarga chiqish zarur. Yordam yetib kelguniga qadar yuqori qavatlarida, daraxtlar ustida yoki tepaliklarda qolish lozim. Suvga tushishga to‘g‘ri kelgudek bo‘lsa, u holda bochka, g‘o‘la, taxta, eshik, yog‘och bo‘laklari, avtomobil kameralaridan foydalanish mumkin. Bular bo‘lmaganda plastik butilkalar, hatto koptoklar sizni suv ustida ushlab tura olishi mumkin.

Suv bosishi (Toshqin) xaqida ogohlantirilganda uning jadalligini belgilovchi barcha omillar xisobga olinishi zarur. Yirik daryolarning keng xavzalarida daryo soxilidagi tekisliklarda yashovchi aholini himoyalanih va ko‘chish uchun yetarli

vaqtga ega bo‘ladi. Kichik xavzalarda esa toshqin to‘lqinini bir zumda yetib kelishi mumkin. Murakkab daryo tizimlarida (tug‘onlar va boshqariluvchi suv omborlari) suvning ushlab turilishi va jamg‘arilish omili ham hisobga olinadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-aprelidagi PF-5418-son “Qishloq va suv xo‘jaligini boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni,
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-sentabridagi PQ-3286-son “Suv obyektlarini muhofaza qilish tizimini kelgusida takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-noyabridagi PQ-3405-son “2018–2019-yillar davomida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va irrigatsiyani rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida” gi Qarori.
4. Ikramova M. R., Axmedxodjaeva I.A., Xodjiev A. Rekomendatsii po uluchsheniyu rejimov raboti vodoxranilish TMGU s uchetom poteri emkosti za period ekspluatatsii dlya povisheniya ix effektivnosti. Sbornik statey mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii «Povishenie effektivnosti, nadejnosti i bezopasnosti gidrotexnicheskix soorujeniy». Tom -1, TIIMSX, Tashkent, 2018g. S. 176-180.
5. Ikramova, Malika Raximberdievna Suv omborlari gidrologiyasi: o‘quv qo‘llanma / M.R. Ikramova – Toshkent : Baktriya Press, 2019, 176 bet.